

Buxoro davlat universiteti  
rektorining 374 - sonli buyrug‘iga  
1-ilova  
2021-yil 7- sentabr

## **Buxoro davlat universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi NIZOM**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Buxoro davlat universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi nizom (keying o‘rinlarda – NIZOM) Buxoro davlat universiteti hamda Buxoro davlat universiteti Pedagogika institutining barcha bo‘limlari, fakultetlari, shuningdek, Buxoro davlat universiteti Qorako‘l akademik litseyi, Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi (keying o‘rinlarda – universitet)ning xodimlari, professor-o‘qituvchilar hamda talaba-yoshlari o‘rtasida antikorrupsion ma’daniyat darajasini oshirish, shuningdek, universitet xodimlari hamda professor-o‘qituvchilar tomonidan xizmat vazifalarini bajarish jarayonida korruption hatti-harakatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik va uni oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari, korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yetakchi jaxon amaliyotlari, shu jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqaruv tizimlari – foydalanish bo‘yicha xalqaro talablar va tavsiyalar”ni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

3. Buxoro davlat universiteti hamda Buxoro davlat universiteti Pedagogika institutining barcha bo‘limlari, fakultetlari, shuningdek, Buxoro davlat universiteti Qorako‘l akademik litseyi, Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi mazkur Nizom talablaridan kelib chiqqan holda, mavjud resurs va tajribalar, xos va qoldiq korruption xavf-xatar asosida o‘zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqishlari va joriy etishlari lozim.

4. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Xodimlar, professor-o‘qituvchilar hamda talaba-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy ma’daniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga toqatsiz munosabatni shakllantirish;

Universitet faoliyatining barcha sohalarida korruptionsyaning oldini olish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

Universitet xodimlari, professor-o‘qituvchilar hamda talaba-yoshlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlar talablarini to’liq va har tomonlama bilishlari hamda ularga rioya etishlari;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik va o‘z vaqtida aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni, oqibatlarni bartaraf etish, egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar, universitet barcha xodimlari tomonidan korruption harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik muqarar ekanligi prinsipi amal qilinishini ta’minlash;

Universitetda korrupsiya barham berish.

5. Ushbu Nizom talablari egallab turgan lavozimi va bajaradigan vazifalaridan qat’iy nazar, universitet bilan munosabatga kirishgan barcha xodimlarga nisbatan qo‘llaniladi.

6. Universitetga ishga kiruvchi har qanday shaxs mazkur Nizom bilan qo‘l qo‘ygan holda tanishishi va unga rioya qilishi shart.

7. Ushbu Nizom maqsadlaridan kelib chiqib quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

**Universitet** – Buxoro davlat universiteti;

**Rektor** – Buxoro davlat universiteti rektori;

**Universitet xodimi / xodim** – Buxoro davlat universiteti bilan mehnat munosabatlariga kirgan jismoniy shaxs;

**Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi** – Buxoro davlat universitetining tarkibiy bo‘linmasi, universitetda korrupsiya qarshi kurashish uchun mas’ul bo‘linma;

**Kontragent** – universitet, uning tarkibiy muassasalari bilan shartnomaviy munosabatga kirishgan (abiturientlar, talabalar, o‘quvchilarining mehnat munosabatlarini istisno qilgan holda) har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs;

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinator yoki mas’ul** – universitet, uning tarkibiy muassasalarida korrupsiya qarshi kurashish doirasida chora-tadbirlarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish vazifalari yuklatilgan universitet xodimi;

**Korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;

**Korrupsiyaviy harakatar** – xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani ya’ni pul, qimmatbaxo qog’ozlar, boshqa mol-mulkni mulkiy tusdagи xizmatlarni, boshqa, mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qiish va’da qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatçiliklarni soddallashtirish uchun to’lovlarни olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanish;

**Korrupsiyon xavf-xatar** – universitet xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan universitet nomidan va(yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy hatti-harakatlarni sodir etish xavfi;

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya belgilariga ega bo’lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qilmish;

**Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – universitet xodimlari tomonidan faoliyatni yuritishda yuqori darajadagi professionalism va odob-axloq qoidalariga amal qilishini ta’minlash, korruption hatti-harakatlarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar;

**Kronizm** – do’stlarga yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlarni tadim etish maqsadida xizmat vazifasidan foydalanish va(yoki) ta’sir o’tkazish;

**Manfaatlar to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik universitet xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko’rsatayotgan yoxud ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan universitetning huquqlari va qonuniy manfaatlari o’rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga keishi mumkinbo’lgan vaziyat;

**Mahalliychilik** – shaxsni mazkur lavozimga qo’yiladigan malaka talablariga muvofiqligini inobatga olmagan holda, faqatgina kelib chiqishi hamda mazkur shaxsning hukumat vakolatlari ega bo’lgan idoralarda yaqin qarindoshining xizmat mavqeyi sabablari bo’yicha shaxsni ishga qabul qilish, ishni o’zgartirish, lavozimga tayinlash(taniqi yoki mashxur shaxslar hamda ularni jamoatchilik tomonidan tan olinishi);

**Nepotism** – o’zining yaqin qarindoshlariga g’ayriqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta’sir o’tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do’stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, universitet manfaatlari zarariga yaqin qarindoshlari va do’stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

**Rasmiyatchilikni yengillashtirish uchun to’lovlar** – tegishli qonunchilik va meyoriy hujjatlarda ko’zda tutilmagan, o’rnatilgan tartib qoidalarni yoki harakatlarni ijro etishning standart tartibini bajarishda yoki amalga oshirilishini tezlashrish maqsadida qonunga xi洛 ravishda taqdim etilgan pul mablag’lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoki nomoddiy daromadlar;

**Xayriya qilish** – universitet (xayriya oluvchiga)ga moddiy yoki nomoddiy qimmatliklarni, shu jumladan pul mablaglari ko’rinishida, ular uchun ish yoki xizmatlar ko’rsatish xamda xayriya maqsadlarida boshqa qo’llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslar(xayriya qiluvchilar)ning qaytarib olinmaydigan va imtiyozli shartlarda ifodalananadigan ixtiyoriy manfaatsiz yordam(faoliyat).

**xizmat(biznes) mexmondo’stligi belgilari** - universitet xodimlarini o’zi tomonga og’dirishga qaratilgan xamkorlikni o’rnatish va(yoki) uni qo’llab-quvvatlash maqsadida, universitet xodimlarining manfaatlari yo’lida uchinchi shaxslarning xarajatlari, shu jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishni tashkil etish, xizmat tushligi va kechki ovqatni uyuشتirish, transport xarajatlari, yashash xarajatlari, dam olishga, ekskursion dastur tashkil etishga qaratilgan xarajatlar va k.k.

**xodimning shaxsiy manfaati** - universitet xodimi tomonidan uning mansab yoki xizmat majburiyatlarini tuliq bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, xizmat vazifalarini bajarishi jarayonida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador shaxslarni pul mablaglari, moddiy va(yoki) nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, daromad, foyda va afzalliklar shaklida manfaatdorligi (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari);

**xaqiqiy manfaatlar to'qnashuvi** — universitet xodimining shaxsiy manfaati bevosita yoki bilvosita universitet manfaatlariga zid kelishi oqibatida xodim tomonidan xizmat vazifalarini to'g'ri bajarilishiga ta'sir qiluvchi vaziyat;

**xomiylilik qilish (xomiylilik yordami)** - buning oqibatida universitetda xomiy oldida o'zaro majburiyat yuzaga kelishiga olib keluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (xomiylar)ning qaytarib berish sharti bilan vazirlik tizimi (xomiylilik qilinuvchi tashkilot)ga mol-mulk, shu jumladan pul mablag'lari shaklida yordam ko'rsatishi xamda ular uchun ishlarni bajarishi, xizmatlar ko'rsatishi yoxud xomiylilik maqsadlarida boshqacha qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishi;

**urug-aymog'chilik** - xodimning umumiyligi avlodga ega bo'lgan muayyan qarindoshga mansubligi asosida uchinchi shaxslarga nisbatan sub'ektiv, iltifotli va noxolis munosabatda bo'lish shaklidagi shaxsiy manfaatini namoyon etilishi;

**shaxsiy ximoya ostiga olish** — universitet xodimini lavozimi bo'yicha yuqori turuvchi xodim tomonidan unga qulay mexnat sharoitlarini yaratib berish shaklida qo'llab turish va ximoya ostiga olish;

**favoritizm** — universitet xodimi tomonidan bir shaxs yoki bir gurux, shaxslar manfaatlarini boshqa shaxs va (yoki) shaxslar guruxi manfaatlaridan ustun qo'yish, shu jumladan, universitetda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, lavozimi bo'yicha ko'tarish, mukofotlarni xisoblash va davlat mukofotlariga tavsiya qilish, mexnat ta'tillari berish yoki sanatoriylar va xorij safarlariga yuborish, murojaatlarni ko'rib chiqish navbatini, shuningdek ish vaqtini va navbatchilik grafiklarini belgilash shular jumlasidandir.

**yaqin qarindoshlar** — qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari.

## II. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari

8. Universitetdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi prinsiplar asosida ishlaydi:

**qonuniylik** — Universitetdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha choratadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, davlat organlari va ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jaxonda tan olingan amaliyotni xisobga olgan holda hamda Universitetning belgilangan ichki xujjalariiga muvofiq amalga oshiriladi;

**korrupsiyaga toqatsizlik** — universitet o’z faoliyatining barcha soxalarida korrupsiyaning xar qanday shakllari va ko’rinishlariga murosasiz munosabatda bo’ladi. Universitet xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo’lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish taqiqlanadi;

**ochiqlik va shaffoflik** — universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xaqida universitet xodimlari va kontragentlarini, keng jamoatchilikni xabardor qilish;

**tizimlilik** — universitet korrupsiyaviy hatti-harakatlar sodir etilishiga va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ko’maklashuvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor axamiyat beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga muvofiq keladi hamda universitetning barcha funksiyalari va yo’nalishlariga integratsiya qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilgan;

**korrupsiya bilan bog’liq huquqbazarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi** — korrupsiya bilan bog’liq huquqbazarliklarni sodir etgan universitet xodimlari o’zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar universitetning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar;

**texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanish** — universitet korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratishda ilm-fan taraqqiyotining so’nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishga intiladi;

**to’g’ridan-to’g’ri raxbaryatga murojaat qilish** — universitetning xar bir xodimi korrupsiyaviy huquqbazarliklar sodir etilganligini to’g’risida ishonchli va asosli ma’lumotlar mavjud bo’lganda belgilangan choralarни ko’rish uchun to’sqiniksiz o’zi faoliyat yuritayotgan bo’lim raxbari, fakultet dekani, universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limiga va (yoki) universitet rektoriga murojaat qilishi mumkin;

**fuqarolik jamiyati vakillari bilan o’zaro hamkorlik** — universitet o’ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda universitet faoliyatini halollik, xolislik va mustaqillik asosida mustaqil nazorat qilish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb etadilar;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish** — Universitet korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni amalga oshirish natijalariga ko’ra, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini to’xtovsiz ravishda oshirish choralarini kuradi.

### **III. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha asosiy chora-tadbirlar**

9. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha quyidagi asosiy chora-tadbirlar belgilangan.

*Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha:*

universitet xodimlari o'z xizmat vazifalarini halol va vijdonan bajarishlari lozim, o'z shaxsiy manfaatlarini nazarda tutgan holda, universitetning mol-mulki va (yoki) xizmat mavqelaridan foydalanmasliklari hamda haqiqiy manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaruvchi holatlarni oldini olishlari talab etiladi.

Universitet xodimlari ishga qabul qilinishida, lavozimini o'zgartirganda, doimiy tarzda har yillik deklaratsiyalash doirasida va xuddi shunday holatlar/vaziyatlar yuzaga kelganda, manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi yoki olib kelishi mumkin bo'lgan o'zlarining shaxsiy manfaatlari to'grisidagi ma'lumotni oshkor qilishga majburdirlar.

Manfaatlar to'qnashuvi to'grisidagi ma'lumotni oshkor qilish va uni bartaraf etish jarayoni universitetda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizomi va universitetning ichki hujjatlari orqali tartibga solinadi.

*Xizmat(biznes) mehmono'stligi belgilari hamda sovg'alarni qabul qilish va berishni tartibga solish bo'yicha.*

Universitet xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish munosabati bilan har qanday sovg'alarni yoki xizmat mexmondo'stligi belgilarini, rag'batlantirish vositalarini, shu jumladan kredit shaklida, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar, naqd pulsiz yoki naqd pul mablag'lari yoxud ularning ekvivalentlari, qimmatli qog'ozlar, kriptovalyutalari, boshqa moddiy qimmatliklar yoki jismoniy va yuridik shaxslardan xizmatlar qabul qilishi taqiqlanadi.

Rasmiy delegatsiyalar tarkibida, shu jumladan xorijiy safarlardagi rasmiy tadbirlarda universitet xodimlari tomonidan olingan xar qanday sovg'alar summasi va shaklidan qat'iy nazar universitetning egaligiga o'tkaziladi.

Universitet xodimlariga (shu jumladan, professor-o'qituvchilar, kafedralar va dekanatlar xodimlariga) shaxsiy manfaatni ko'zlagan holda ayrim abiturientlar (talabalar, o'quvchilar), boshqa xodimlar va (yoki) jismoniy va yuridik shaxslarga imtiyozlar berish maqsadida xar qanday sovg'alarni talab qilish va (yoki) qabul qilish taqiqlanadi.

Universitet xodimlariga (shu jumladan, professor-o'qituvchilar, kafedralar va dekanatlar xodimlariga) talabalar (o'quvchilar), ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari, jismoniy va yuridik shaxslardan har qanday ko'rinishdagi sovg'alarni talab qilish va(yoki) qabul qilish taqiqlanadi.

Universitet xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg'a yoki ish jarayonida medmondo'stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag'batlantirish vositalarini, nad pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida moddiy yordam qabul qilish taqiqlanadi.

Universitet xodimlariga ularning shaxsi bilan bog'lik bayramlar (tugilgan kun, bolaning tugilishi, Vatan ximoyachilari kuni, Xalkaro xotin-kizlar kuni)da berilgan,

xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lмаган sovg'alar xodimning shaxsi bilan bog'liq sovg'alar deb tan olinadi.

Shunday sovg'alar berishda quyidagi umumi shartlarga rioya qilinishi zarur:

- sovg'alar ustunlikka ega bo'lish, qandaydir harakat (harakatsizlik)ni amalga oshirish uchun rag'bat olish maqsadida taqdim etilmasligi lozim;

- sovg'alar universitetning kamida uchta xodimi ishtirokida topshirilishi kerak;

- sovg'ani berish tabrik so'zi (unda sovg'ani berish sababi aniq ifoda etiladi) bilan birga bo'lishi kerak;

- sovg'aning umumi qiymati (barcha soliqlar va yig'implarni xisobga olgan holda) bazaviy xisoblash miqdorining besh baravaridan ko'p bo'lmasligi lozim;

- Universitetning bir xodimi boshqa xodimga sovg'a uchun qilgan xarajati har bir xolatda bazaviy xisoblash miqdorining 1(bir) baravaridan ko'p bo'lmasligi lozim.

Shubha-gumonlarni keltirib chiqarmaslik maqsadida universitet xodimlari xar qanday bayramlar va sabablar munosabati bilan boshqa davlat organlari va tashkilotlari xodimlaridan, hamkorlar va kontragentlardan, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan mazkur Nizomda keltirib o'tilgan (sovg'alarmi qabul qilish va berish xamda xizmat medmondo'stligi belgilari) shartlardan tashqari sovgalar va boshqa moddiy qimmatliklarni olish taqiqlanadi.

Xalqaro konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa ishbilarmonlik (xizmat) uchrashuvlarida universitet nomidan sovg'alar berish O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablariga muvofiq tegishli universitet rektorining buyrugi bilan amalga oshiriladi.

Sovg'ani berish (qabul qilish) qonuniyligi bo'yicha shubha-gumonlar kelib chiqqan taqdirda, universitet xodimi universitetdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bilan maslahat qilishi zarur.

*Kadrlar bilan ishlash jarayonini tartibga solish bo'yicha.*

Universitetda xodimlarni ishga qabul qilish, ishga yollash va ular faoliyatini baxolash jarayoni (shu jumladan, mukofot puli to'lash, ustamalar belgilash va boshqa turdag'i mukofotlash) barcha xodimlar uchun shaffof, teng huquqli va ob'ektiv tarzda mazkur Nizom talablari va asosiy prinsiplariga muvofiq amalga oshiriladi.

Universitetga kadrlarni ishga qabul qilish va ish bilan ta'minlash jarayoni o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan universitetga ishga kirish uchun nomzodlarni tanlash va o'rganish bo'yicha Yo'riqnomalar hamda universitetning boshqa ichki xujjalari asosida, nomzodning ishonchliligi va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'laqonli tekshirish bilan birga amalga oshirilishi lozim.

Vakant lavozimlarga, shu jumladan professor-o'qituvchi lavozimlariga tanlov egallanadigan lavozimga o'rnatilgan talablarga muvofiq konkurs asosida yoki boshqacha tarzda (agar universitetning ichki hujjalarda bunday usul nazarda tutilgan bo'lsa) amalga oshirilishi lozim, bunda nomzodning malakasiga, professional va ilmiy yutuqlariga alovida e'tibor qaratiladi.

Universitetdagi kadrlar masalalari buyicha qarorlar qabul qiladigan xodimlar tomonidan xizmat lavozimida ko'tarishda, ishga qabul qilishda, kadrlar zaxirasiga

kiritishda va x.k.larda nomzodlar (xodimlar)ga asoslanmagan imtiyozlar (agar ushbu afzalliklar pora olish natijasida yoki manfaatlar to'qnashuvi oqibatida amalga oshirilsa) taqdim qilish tatqiqlanadi;

Universitetda egallab turgan lavozimi, xizmat davri va boshxa omillardan qat'iy nazar Universitet xodimlarining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari baxolash tartibi va mezoni ishlab chiqilishi lozim, shu asosda ularni mukofotlash, xizmat lavozimida ko'tarish, lavozimidan ozod etish amalga oshiriladi. Mazkur ko'rsatkichlar ob'ektiv, shaffof va vazirlik tizimi xodimlari tanishishi uchun ochiq-oydin bo'lishi talab etiladi.

*Kontragentlar bilan shaffof va samarali aloqa o'rnatish bo'yicha.*

Universitetda mazkur Nizom talablari va prinsigilariga zid keluvchi xar qanday to'lovlarni va (yoki) harakatlarni amalga oshiruvchi kontragentlar bilan aloqa o'rnatilmaydi.

Kontragentlar va boshqa uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda universitet o'z faoliyatini qonuniylik va shaffoflik prinsiplariga asoslangan holda, shuningdek davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablari asosida amalga oshiradi.

Universitet kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqa o'rnatish (hamkorlik)da:

- ularning ishonchlilagini, shu jumladan korrupsioya xatti-xarakatlar elementlari va universitet xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvining mavjud emasligi yuzasidan universitetda kontragentlarni aniqlash bo'icha Yo'riqnomma, Universitetdagi boshqa ichki hujjatlar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarga muvofiq tekshiruvlar o'tkazadilar;

- kontragent bilan tuzilgan shartnoma matniga maxsus antikorrupsion shartlarni kiritish yo'li bilan o'zining antikorrupsion prinsiplari va talablari to'g'risida potensial kontragentni (sotib olish jarayoni g'olibini) xabardor kiladi.

*Xayriya va homiylik yordamlarini qabul qilishda shaffof va samarali jarayonni ta'minlash bo'yicha:*

Universitet O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan hollarda xayriya va homiylik yordamlarini qabul qilishlari mumkin.

Universitet xayriya yoki homiylik yordamini qabul qilish jarayonida manfaatlar to'qnashuvining har qanday ko'rinishlarini oldini olishi, qonun hujjatlarida va (yoki) shartnomada belgilangan maqsadlar uchun mablag'larning samarali va maqsadli sarflanishini ta'minlash bo'yicha barcha choralarни ko'rishi, shuningdek, internet tarmog'ida o'zining rasmiy veb-saytida xayriya va xomiylik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi.

Xayriya yoki homiylik yordami yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan muassasalarga ko'rsatilishi mumkin. Aloxida jismoniy shaxs (universitet xodimi)ga, tarkibiy bo'linma (kafedra)ga va v.k.larga xayriya (homiylik) yordamini ko'rsatish tatqiqlanadi.

Universitet tomonidan olinadigan xayriya (xomiylik) yordami xufyona mukofot tarzida bo'lmasligi va xayr-ehson qiluvchi (xomiy), uning yaqin

qarindoshlari, shuningdek boshqa shaxslar (ularga nisbatan xayr-ehson qiluvchi (xomiy)ning shaxsiy manfaatdorligi bo'lganlar)ning foydasini ko'zlab qaror qabul qilinishiga ta'sir o'tkazmasligi lozim.

Universitet tomonidan xayriya (xomiylik) yordamni qabul qilish jarayonida quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- xayriya/homiylilik yordamini olish va foydalanish maqsadlari, yordam turlari, pul ko'rinishidagi yordam summasi, kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish bo'yicha xayriya qiluvchi (xomiy) oldida hisobot berish usuli ko'rsatilgan xayriya qiluvchi (xomiy) bilan majburiy shartnomaga tuzish;

- bunday turdag'i shartnomalarga antikorruption shartlarni kiritish;
- Universitetning internet tarmogidagi rasmiy veb-saytida qabul qilib olingan xayriya (xomiylik) yordami to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish.

*Universitet faoliyatini videokuzatish va translyatsiya qilish bo'yicha.*

Universitetdagi binolarda xodimlarning faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va video yozuvli kameralar joylashtiriladi, ulardagi yozuvlar universitetning mas'ul xodimlari tomonidan muntazam ravishda o'rganib boriladi.

Universitetning rasmiy veb-saytlarida yuqori korruption xavf-xatarlar mavjud ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyalari joylashtiriladi.

#### **IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari**

10. Korrupsiyaning xar qanday ko'rinishlariga nisbatan toqatsizlik prinsipiiga rioya qilgan holda, butun universitet korrupsiyaga qarshi kurashishda yagona yondashuvni shakllantirishga va korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit tizimini joriy etishga intiladi.

11. Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagilar (mazkur Nizom, Universitet xodimlarining odob-axloq qoidalari, Universitetdagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom)da o'z aksini topgan.

Universitetning tarkibiy bo'linmalari raxbarlari o'z xodimlari, fuqarolar (yuridik shaxslar) bilan munosabatlarda xalollik, adolatlilik va insoflilik kabi xulq-atvor namunasini ko'rsatish bilan birga, o'zlarida har qanday korruption harakatlarga toqatsizlik ko'rsatish munosabatini shakllantirishi lozim.

Universitet tarkibiy bo'linmalari boshliqlari korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish va uni amalga oshirishda yetakchilik(liderlik) qobiliyatini quyidagilarda namoyon etadilar:

- Universitet faoliyatining xavf-xatar funksiya va yo'nalishlariga samarali antikorruption tadbirlar va jarayonlarni joriy etish, shu jumladan antikorruption dasturlar (yo'l xaritalari)ni tasdiqlash va ularning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish;
- korrupsiya masalalari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini har tomonlama puxta vaadolatli ko'rib chiqilishini ta'minlash.

*Korrupsiyon xavf-xatarlarni aniqlash va baxolash bo'yicha:*

Universitet faoliyat yo'nalishlariga mos bo'lган funksiyalardan kelib chiqqan holda, jamoatchilik, kontragentlar va boshqa shaxslar bilan aloqalarda korruption xavf-xatarlarni aniqlash va baxolashni amalga oshiradi, shuningdek boshqa tashkqi va ichki omillar ta'sirida Universitetda korruption xavf-xatarlarni baxolashni amalga oshirish Uslubiyotiga hamda universitetning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

Korruption xavf-xatarlarni aniqlash va baxolash doirasida universitet faoliyatining barcha yo'nalishlarida korruption xavf-xatarlarga ta'sirchan bo'lган funksiyalarni aniqlash bo'yicha taxlilni amalga oshiradi, shuningdek aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiluvchi samarali antikorruption tadbirlar va nazorat turlari mavjudligi (mavjud emasligi) taxlil qilinadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limining qo'llab-quvvatlashi va nazorati ostida korruption xavf-xatarlarni aniqlash va baxolash jarayonida universitetda tegishli funksiyalari yuklatilgan mas'ul shaxslari va korrupsiyaga qarishi kurashish bo'yicha koordinatorlar qatnashadilar.

Korruption xatti-harakatlarning xar qanday ko'rinishlariga toqatsizlik prinsipidan kelib chiqib, universitetda korruption xavf-xatarni kelib chiqish ehtimoli va ta'sir qilish darajasidan qat'iy nazar, bu jarayonni boshqarish zarurligi muxim o'rincutadi.

Korruption xavf-xatarlarni aniqlash va baxolash bir yil davomida kamida bir marotaba o'tkaziladi. Korruption xavf-xatarlarni baxolash natijalari rektor va universitet raxbariyati tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniqlangan korruption xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan antikorruption chora-tadbirlar universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari (yo'l xaritalari)da aks ettiriladi.

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun aloxida mas'ul tarkibiy bo'linma - universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi (keyingi o'rinnlarda - Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi) tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bevosita rektorga bo'ysunadi va o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, universitetning "Korruptsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq amalga oshiradi.

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda rektor Korruptsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limiga yetarli darajada mustaqillik va zaruriy resurslarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi o'z faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zaruriy bilim va kompetensiyalarga ega bo'lган xodimlarga ega bo'lishi kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limi xodimlari har yili korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha o’qitish kurslarida malaka oshirishlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish va aptikorrupsion tizimni shakllantirish masalalari bo’yicha tadbirlarda ishtirok etishlari talab etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limi universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga mas’ul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha chora-tadbirlarni o’z vaqtida va samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, shuningdek Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limi bilan hamkorlik qilish maqsadida universitetning har bir fakultetida korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha koordinator yoki mas’ul shaxs tayinlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha koordinator yoki mas’ul shaxs o’z faoliyatini Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha koordinator to’grisidagi nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha koordinator yoki mas’ul shaxs lavozimi korrupsiya xavfining yuqori darajasi bilan ifodalanadigan funksiyalarni bajarmaydigan xodimga yuklatilishi lozim.

Universitetning kadrlar bo’limi universitetda manfaatlar tuqnashuvini boshqarish bo’yicha Nizomga va universitetning boshqa ichki hujjatlariga, O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq tartibga solinadigan xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularning o’zaro aloqador shaxslari to’g’risida tizimli ravishda va belgilangan muddatlarda ma’lumot to’plash, taxlil qilish va yangilash uchun javobgardirlar.

Qo’shimcha tarzda universitetdagи quyidagi funksiyalarni amalga oshiruvchi aloxida Odob-axloq bo’yicha komissiya tuzilishi lozim:

- odob-axloq qoidalariga rioya etish masalalarini ko’rib chiqish;
- Universitet xodimining manfaatlar to’qnashuvini (bu xaqdagi ma’lumotlar kadrlar bo’limidan, xodimning o’zidan, boshqa kanallar orqali olingan) ko’rib chiqish va uni bartaraf etish;
- aniqlangan manfaatlar to’qnashuvini bartaraf qilish yuzasidan qabul qilingan qarorlarning yetarliligi yoki yetarli emasligini ko’rib chiqish.

Odob-axloq bo’yicha komissiya o’z faoliyatini Universitetda odob-axloq bo’yicha komissiya to’g’risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

*Axborot taqdim etish, aloqa o’rnatish va maslaxat berish tizimini yulga qo’yish bo’yicha.*

Universitet o’zining rasmiy veb-saytlarida korruption xavf-xatarlarni kamaytirish va bundan universitet xodimlari, professor-o’qituvchilari hamda talabalari xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Nizomni va ular tomonidan amalga oshirilayotgan antikorrupsion tadbirlar to’g’risidagi asosiy ma’lumotlarni joylashtirib boradilar.

Universitet O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi qonunchilik talablarini va universitet xodimlari (shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslar) uchun qabul qilingan antikorrupsion talablar to'g'risidagi axborotlarni yetkazish va tushuntirish ishlarini olib borish bo'yicha barcha imkoniyatlarni ishga solish yo'lida quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

- Universitet raxbaryati tomonidan xodimlarga universitetda qabul qilinayotgan antikorrupsion normalar va talablarga rioya etish muximligi to'g'risidagi xabarlarni elektron pochta va boshqa kommunikatsion tizimlari orqali doimiy tarzda yetkazib berish;

- Universitet xodimlariga doimiy tarzda va tizimli ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil qilish. O'qitish universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha har yillik o'qitish rejasiga asosan bir yilda bir marotabadan kam bo'lmasligi lozim. Yangi ishga qabul qilingan xodimlar mazkur Nizom va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlar bilan majburiy tanishish bilan birga antikorrupsion o'qitishda qatnashishlari lozim. Bundan tashqari, universitetda yuqori darajada korruption xavf-xatari bo'lgan lavozimlar qo'shimcha tarzda antikorrupsion o'qitishlar tashkil etiladi. O'qitish (treninglar) o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rnatilgan tartibda Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limida va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator (mas'ul) shaxslarda saqlanadi;

- xodimlar va fuqarolar o'rtasida amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish choralari to'g'risidagi xabardorligini oshirishga xamda ularda korruption xatti-harakatlarga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tematik audio va videoroliklar hamda boshqa axborot materiallaridan foydalangan holda antikorrupsion kampaniyalarni o'tkazish;

- Universitet xodimlarining korruption xatti-harakatlarni sodir etilishi, korruption xavf-xatarlar va shu kabi ma'lumotlar (shubxalar) to'g'risida xabar berish imkonini beruvchi aloqa kanallarini ishga tushirish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari yoki universitetdagi boshqa antikorrupsion talablar va tadbirlar hamda mazkur Nizom talablari bilan bog'liq har qanday masalalarda vazirlik tizimi xodimlariga maslaxatlar berish. Xodimlar maslaxat olish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi va (yoki) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli koordinator (mas'ul) shaxslarga murojaat qilishlari mumkin;

- Universitet xodimlari mexnat shartnomalariga antikorrupsion talablarni kiritilishi;

- Universitetning kontragentlari (xamkorlari, xayr-exson qiluvchilari, xomiylari) bilan tuzilgan shartnomalarga antikorrupsion shartlarni kiritish;

- antikorrupsion xulq-atvorni targ'ib qilinishi Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli koordinator (mas'ul shaxs)lar hamkorligida ishlab chiqilgan rejallarga muvofiq amalga oshiriladi.

### *Monitoring, nazorat va xisobot masalalari bo'yicha.*

Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi, shuningdek mas'ul bo'linmalar (shaxslar) o'z darajalarida universitetdagi antikorrupsion tadbirlarni mutanosib tarzda, yetarli darajada olib borilayotganligini, uning samaradorligini baxolab, doimiy ravishda nazorat va monitoring olib boradilar. O'tkazilgan monitoring va nazorat natijalariga ko'ra, vazirlik tizimida korruptsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish bo'yicha tegishli tadbirlar qabul qilinadi.

Universitet korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini amal qilishi va mavjud holatini monitoring va nazorat qilish uchun mustaqil tashkilotlar(muassasalar)ni jalgilish huquqiga ega.

Universitetning korruptsiyaga qarshi kurashish tizimida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha monitoring o'tkazilishi lozim:

- Universitet faoliyatida qo'llaniladigan korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hukumat idoralarining tavsiyalari va qonunchilik monitoringi;

- xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalari monitoringi;

- ommaviy axborot vositalarini, ularda universitet xodimlarini korruptsion xatti-harakatlarga jalg qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar, xuddi shunday ma'lumotlarni universitetning kontragentlari (hamkorlari)da mavjudligi bo'yicha monitoring o'tkazish;

- Universitet xodimlarining korruptsiyaga qarshi kurashishining asosiy prinsiplari va talablari bo'yicha xabardorligini tekshirish;

- universitetdagi Yo'l xaritasining bandlarini bajarilishi tuliqligi va samaradorligini monitoring qilish.

Universitetdagi korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi (korruptsion xavf-xatarlarni mavjud emasligi) bo'yicha nazorat quyidagicha amalga oshiriladi:

- antikorrupsion tizimni, shu jumladan universitetda o'rnatilgan talablar va choralarga rioya etilishi yuzasidan nazoratni ichki audit;

- ISO 37001:2016 standartlariga muvofiqlik bo'yicha antikorrupsion tizimni ichki audit.

Monitoring va nazorat O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimidagi korruptsiyaga qarshi kurashish prinsiplari va talablariga rioya etilishini monitoring qilish va nazorat qilish Uslubiyotiga xamda Universitetning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring qilish va nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlarning yakunlari va natijalari universitet rektoriga taqdim qilinadigan choraklik hisobotlarda aks etadi. Hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibi universitetda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi xisobotlarni shakllantirish va taqdim etish Reglamentiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

*Huquqbazarlikka qarshi kurash va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha.*

Mazkur Nizom, vazirlik tizimida antikorrupsion talablar va tartib-qoidalarga rioya qilish har bir xodimning o'z xizmat vazifalarini bajarishi doirasida amalga oshirilishi lozim.

Xodimlar belgilangan talablar va tartiblarni buzganlik uchun shaxsiy javobgar hisoblanadilar.

O'rnatilgan antikorrupsion talablarini buzgan Universitet xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda va asoslarda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Xodimlar o'z raxbarini yoxud huquqni muhofaza qilish organlarini ularni huquqbazarliklar sodir etishga og'dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to'g'risida, shuningdek boshqa davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lган har qanday holatlari haqida xabardor qilishi shart.

Korrupsianing xar qanday ko'rinishlariga nisbatan toqatsizlik prinsipini inobatga olgan holda, universitet xodimlari tomonidan universitetda korrupsion xarakatlar sodir etilgan har bir asoslangan shubhali holat yuzasidan ichki xizmat tekshiruvlari Universitet xodimlarining odob-axloq qoidalari, Korrupsion harakatlar va qonunbazarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamentda nazarda tutilgan tartibda, universitetning boshqa ichki hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq o'tkaziladi.

Korrupsion harakatlar aniqlangan taqdirda, Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi korrupsiyaga qarishi kurashish bo'yicha koordinator (mas'ul)lar bilan hamkorlikda ularni amalga oshirish sabablari va imkoniyatlarini taxlil qiladi va doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirib boradi.

Ichki tekshiruvlar natijalari to'g'risida rektorga ma'lumot beriladi.

Universitet korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash va tergov o'tkazish bo'yicha huquqni muxofaza qiluvchi organlar va boshqa idoralar bilan hamkorlik qiladi.

*Korrupsion xavf-xatarlarni kamaytiruvchi chora-tadbirlar bo'yicha:*

Universitet umumiylar nazorat muhiti bilan birga, faoliyat (funksiya)ning xavf-xatar yo'nalişlaridagi (aniqlangan xatarlar darajasiga mos ravishda) antikorrupsion nazorat va tadbirlarni ham qamrab oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning kompleks tizimini joriy qiladilar.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'icha joriy qilinayotgan nazorat va tadbirlar universitet xodimlari uchun aniq va tushunarli bo'lishi zarur, jamoatchilik uchun universitet faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar va jarayonlar universitetning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha dasturi/yo'l xaritasida aks ettiriladi, shuningdek mazkur Nizomda va universitetning tegishli ichki hujjatlarida belgilanadi.

## **V. Korrupsion xarakatlar to'g'risida xabar berish**

12. Universitet xodimlari va boshqa shaxslar korrupsiyaviy harakatlar sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi fakti hamda boshqa huquqbazarlik to'g'risida universitet aloqa kanallari orqali ochiq tarzda xabar berishlari mumkin.

13. Universitet o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida huquqbazarlik to'g'risida ishonchli ma'lumot bergen shaxsning maxfiyligini ta'minlaydi.

14. Universitet o'z xodimlarining manfaatlarini ximoya qiladi hamda qasos olish xatti-harakatlari, shu jumladan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, ta'qib qilish, shubhali xatti-harakatlar yoki mazkur Nizomdagi antikorrupsion talablarni vazirlilikning boshqa xodimi tomonidan buzilishi mumkinligi to'g'risida ishonchli xabar yetkazgan xodimlarga nisbatan ta'qiblarga yo'l qo'ymasligini kafolatlaydi.

15. Korrupsiyaviy xarakatlar to'g'risida xabarlarni quyidagi aloqa kanallari orqali yetkazish mumkin:

+ 99865 221 29 90 hamda +99888 306 06 66 orqali;

"[https://t.me/BuxDu\\_KorrupsiyagaQarshiKurash](https://t.me/BuxDu_KorrupsiyagaQarshiKurash)" telegram kanali orqali;

Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi elektron pochtasi: "buxdu\_korrupsiyagaqarshikurash@mail.ru" orqali;

Universitetning "<https://buxdu.uz/>" rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl orqali;

Telegram tarmogidagi rektorga murojaat qilish uchun @buxdurektorgamurojaatbot orqali;

Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlari tomonidan o'tkaziladigan shaxsiy qabul orqali;

Universitetning devonxonasisiga yuboriladigan yozma murojaatlar orqali.

16. Universitetning aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, universitetda korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga muljallangan aloqa kanallariga tushuvchi xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash Regamenti va universitetning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq vazirlik tizimining mas'ul bo'linmasi(xodimi) tomonidan ob'ektiv va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi

17. Korrupsion xarakatlarni sodir etilganligi fakti yoki shubha - gumanlari to'g'risida yetarlicha axborot mavjud bo'lganda, anonim tarzda yuborilgan xabarlar (universitetning teleogramm kanallari orqali) ham ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi.

18. Universitetning xodimiga ataylab yolgon ma'lumotlar taqdim etilishi ushbu Nizomning buzilishi va odob-axloq normalariga qarshi harakat sifatida baxolanadi va bu shaxs O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va universitetning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

19. Universitet xodimlari tomonidan mavjud aloqa kanallari orqali universitetdagi korrupsiyon faktlar to'g'risida ishonchli xabar berilganda, agar ushbu ma'lumot tasdiqlansa, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga xarshi kurashish to'g'risida"gi qonuniga va universitetning ichki hujjatlariga muvofiq rag'batlantirilishi mumkin.

## **VI. Ko'rib chiqish va o'zgartirish tartibi**

20. Quyidagi hollarda mazkur Nizom qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi mumkin:

- mavjud ichki hujjatlarni, nazorat va tartiblarni qayta ko'rib chiqish zarurligini keltirib chiqaradigan korrupsiyaga qarshi kurashish buyicha O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi o'zgarishlar bo'lganda;
- samarasiz korrupsiyaga qarshi nazorat va tadbirlar aniqlanganda hamda universitet faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish va ogohlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar takomillashtirish zaruriyati tug'ilganda;
- tashkiliy tuzilmalardagi o'zgarishlar va (yoki) o'z funksiyalarini bajarish xususiyatlari va boshqalar.